

GULXANIY IJODIDA MASALLAR BADIYYATI

Amirova Marjona Bahodir qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15608520>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Gulxaniy ijodida masal janrining tutgan o'rni, ularning badiiy xususiyatlari, obrazlar tizimi, badiiy ifoda vositalari va didaktik yo'nalishi tahlil qilinadi. Gulxaniy masallari orqali xalq og'zaki ijodi an'analari va Sharq adabiyoti bilan bog'liqlik ochib beriladi. Shuningdek, uning masallarida ifodalangan axloqiy-g'oyaviy mazmun va ijtimoiy-satirik yo'nalishlarning dolzarbligi yoritiladi. Muallifning til uslubi, ramziy obrazlardan foydalanishi va o'zbek masalchilik an'anasiga qo'shgan hissi ham ilmiy jihatdan tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Gulxaniy, masal, badiiylilik, satira, ramziy obraz, didaktika, til uslubi, xalq og'zaki ijodi, Sharq adabiyoti, o'zbek adabiyoti

Аннотация. В данной статье рассматривается роль жанра басен в творчестве Гулхани, анализируются их художественные особенности, система образов, средства художественной выразительности и дидактическое направление. Раскрывается связь басен Гулхани с традициями устного народного творчества и восточной литературы. Также освещается актуальность нравственно-идеологических и социально-сатирических мотивов, выраженных в баснях. Статья включает научный анализ языкового стиля автора, использования символических образов и его вклада в узбекскую басенную традицию.

Ключевые слова: Гулханий, басня, художественность, сатира, символический образ, дидактика, языковой стиль, устное народное творчество, восточная литература, узбекская литература.

Absratct. This article explores the role of the fable genre in Gulxaniy's literary work, focusing on its artistic features, character system, expressive means, and didactic orientation. It reveals the connection between Gulxaniy's fables and the traditions of oral folk creativity as well as classical Eastern literature. The article also highlights the relevance of the moral-ideological and socio-satirical themes reflected in his fables. The author's linguistic style, use of symbolic imagery, and contribution to the Uzbek fable tradition are analyzed from a scholarly perspective.

Keywords: Gulxaniy, fable, artistic style, satire, symbolic image, didactics, language style, oral folk creativity, Eastern literature, Uzbek literature.

Gulxaniy XIX asrning birinchi yarmi Qo'qon adabiy muhitida masal, tamsil janrlarida go'zal asarlar yaratishga muvaffaq bo'lgan adibdir. Gulxaniy tabiatdan hazil mutoyibaga usta, xalq urf-odatlarini til boyliklarini maqol, matal, naql va rivoyatlarni, hajv va yumorni chuqur bilgan shaxs bo'lgan.

O'zbek adabiyoti tarixida Gulxaniy ijodining o'ziga xos o'rni bor. Undan oz lirik she'rlar qolgan bo'lsa ham o'z davrining voqea holatlarini ko'rsata olgan. Ayniqsa o'sha davrdagi ochlik va yupunlikdan azob chekkan kambag'al xalq axvolini ro'yi-rost ko'rsatib bergan. Gulxaniy "Zarbulmasal" asarida tasvirlangan majoziy timsollar orqali aytilgan fikrlar o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Zero, asardagi 400 dan ortiq xalq maqollari va hikmatli so'zlarning ahamiyati katta.

Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari o'zbek tilining naqadar boy bir til ekanligini isbotlovchi bir asardir. "Zarbulmasal" badiiy nutqning jozibadorligi va o'ziga xosligi bilan boshqa masallardan ajralib turadi. Olim Fathiddin Ishoqovning aniqlashicha Gulxaniyning avlodlari tog'liklardan bo'lsada Qo'qonda yuzboshi mansabidagi shaxs oilasida tug'ilib shu muhitda voyaga yetgan. Aks holda uning o'zbek tili boyligi xalq urf-odatlarini chuqur bilish, askiyachilikda shuhrat topishi va o'zining shu xislatlari bilan saroy shoirlari ichida "Zarbulmasal"dek asarni yaratishga loyiq ko'rilishi mumkin emas edi deb takidlab o'tgan. Gulxaniyning ba'zi til xususiyatlariga asoslanib, uning otasi Qo'qonga Garm yoki Darvoz tomonidan kelib qolgan bo'lishi mumkinligini taxmin qiladilar. Yirik Gulxaniyshunos Gulxaniyning shaxsiyati va adabiy merosi haqida ma'lumot beruvchi ilk manba Umarxon davrida yaratilgan "Majmuai shoiron" tazkirasidir. Chunki taskira birinchidan, Gulxaniy hayotlik vaqtida maydonga kelgan ikkinchidan, taskira adibni tanigan bilgan u bilan muloqotda bo'lgan kishilar: Fazliy, Mushrif, Xolif tomonidan yaratilgan.

Gulxaniy "Zarbulmasal" asarida boshqa badiiy san'atlar bilan birga hatto umuman nasriy asarlarda juda siyrak uchrovchi kitobot harf san'atidan ham foydalanadi. Masalan: Ko'kqush bilan kuyov Kulonkir sulton bahsi suhbatidagi Ko'kqushning "G'ulom" so'zi haqidagi sharhini olaylik.

"Nechikkim aytmishlar: Qum yig'ib tosh bo'lsa, qul yig'ilib bosh bo'lmas". Forsiy ulusda qulni "G'ulom" derlar. Bu harfiy so'z o'rtasidagi "lom", "g'ulom" so'zini zanjirdek bog'lab turishiga ishora qiladi. Yoki Kordon tilidan Turumtoyga Bozanda va Navozanda kabi ikki kabutarning sarguzashtini hikoya qilganda ham Gulxaniy shu san'atga murojat qiladi. "Zarbulmasal" ko'p planli qiziqarli syujet chizig'iga ega, folklorizmga boy, o'ta xalqchil majoziy asar sifatida o'zbek adabiyatining nodir namunasidir. Unda xalqimizning yaqin o'tmishdagi tarixi, milliy qadriyatlari urf-odatlarini, til xazinasini, zarbulmasalda o'z ifodasini topgan.

Gulxaniy masallarida faqatgina hajviy ruh bilan cheklanib qolmay, balki har bir hikoyatda muayyan axloqiy xulosa chiqariladi. Masallarda adolat, halollik, mehnatsevarlik va odob-axloqiy qadriyatlar ulug'lanadi. Har bir masalda muayyan axloqiy pand-nasihati beriladi. Masalan: "Qarg'a va chumchuq" masalida qarg'aning maqtonchoqligiga unga kulfat keltiradi. Ushbu masal o'quvchiga o'zining imkoniyatlarini to'g'ri baholash, kamtarlik va dono bo'lish kerakligini eslatadi. "Zaebulmasal" asarida masallarning aksariyati she'riy shaklda yozilgan. Bu uslub nafaqat asarning badiiy qimmatini va ta'sirchanligini oshiradi, balki uning esda qolarli bo'lishiga ham xizmat qiladi. "Zarbulmasal" dagi ko'plab masallar she'riy shaklda yozilgan bo'lib, ular sodda, asda qolarli va ta'sirchan ongga ega. Masalan, quyidagi misralarni olaylik:

"Har kimki o'z ishini boshdan o'ylamas,

Oxir borib, pushaymon chekar, bilmas

Bu misralar orqali muallif inson har bir ishda oldindan aql bilan harakat qilish lomligini ta'kidlaydi.

Gulxaniy ijodi o'zbek adabiyotida masal janrini yuksak darajaga olib chiqdi. Uning "Zarbulmasal" asari nafaqat adabiy, balki ma'naviy tarbiya vositasi sifatida ham katta ahamiyatga ega. Masallardagi o'tkir satira, xalqchil uslub va chuqur didaktik ma'no bu asarni bugungi o'quvchilar uchun ham dolzarb qilib turibdi. Shunday ekan, Gulxaniy masallarini o'rganish va ulardan hayotiy saboqlar olish har bir kitobxon uchun foydalidir. "Zarbulmasal" o'zining o'tkir tanqidiy ruhi, jonli tasvirlari va xalqona tili bilan ajralib turadi. Asar inson fi'liyatidagi kamchiklarni hajv va timsollar orqali ochib beradi va o'quvchini axloqiy xulosa chiqarishga undaydi. Shu jihatlari bilan uning badiiyati juda boy va ta'sirchan hisoblanadi. Gulxaniyning masallari nafaqat badiiy meros, balki axloqiy vosita tarbiyasi hamdir. Chunki ular har bir o'quvchini hayotiy saboqlar chiqarishga undaydi, insoniyatga xos ezgulik va yovuzlik kurashni tasvirlaydi. Ushbu masallar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan, chunki inson tabiati va jamiyatdagi ijtimoiy muammolar doimo dolzarb bo'lib kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avazova, N. O., & Zaripova, M. (2025). XALQNING ORZULARIGA QANOT BOG 'LAGAN SHOIR. *Modern Science and Research*, 4(5), 326-332.
2. SO, N. A. S. L. D. SHEVA LEKSIKASIDA DIALEKTAL SO 'Z TURLARI (Buxoro viloyati, G 'ijduvon tuman shevasi misolida). *THEORETICAL ISSUES OF UZBEK LINGUISTICS*, 248.

3. Avazova, N., & HAMDAMNING, J. O. U. (2024). OTA. ROMANIDAGI AYRIM OBRAZLAR TAVSIFI//Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 3(1), 20-24.
4. Avazova, N. (2024). TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR: ANVAR OBIDJON IJODIDA TO 'RTLİK SHAKLIGA YANGICHA POETİK MUNOSABAT IFODASI. Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali, 4(4).
5. Avazova, N. (2024). THE ROLE OF THE QUATRAINS IN NAVOI PROSE AND SCIENTIFIC WORKS. *Modern Science and Research*, 3(10), 176-179.
6. Raupovna, X. R. (2019). The formation of professional speech of students in the learning process at the university. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 7.
7. Халилова, Р. Р. (2015). Повышение культуры речи будущего учителя как педагогическая проблема. *Вестник по педагогике и психологии Южной Сибири*, (1), 24-32.
8. Jabborova M. HEAVENLY ATTRIBUTES FOUND IN FOLKLORE AND THEIR IMPORTANCE IN EVERYDAY LIFE //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 10. – С. 159-162.
9. Valiyevna J. M., Atoyevna O. F. SHODIQL HAMRONING «HOVLIDAGI DARAXT» TIMSOLINIG SHAXS SIFATLARIGA EPITET BOLIB KELISHI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2024. – Т. 44. – №. 8. – С. 57-60.
10. Jabborova, M., & Safoyeva, S. (2024). THE IMAGE OF THE SUN IN EPIC WORKS. *Solution of social problems in management and economy*, 3(4), 165-168.
11. 4.Jabborova, M. (2023). THEORETICAL INTERPRETATION OF STUDENTS'ACADEMIC ACHIEVEMENT. *Solution of social problems in management and economy*, 2(12), 36-40.
12. Jabborova, M., & Safoyeva, S. (2024). THE IMAGE OF THE SUN IN EPIC WORKS. *Solution of social problems in management and economy*, 3(4), 165-168.
13. Valiyevna, J. M. (2024). The Artistic Perfection of Cosmic Images in the Works of Yusuf Khos Hajib and Navoi. *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, 3(4), 153-158.
14. Jabborova, M. (2024). MUMTOZ SHE'RIYATDA UCHRAYDIGAN OY, YULDUZ, QUYOSH TIMSOLLARINING SHAXS QIYOFASIDA
15. Sharipova, M., & Azimova, N. (2025). ERTAKLARNING JANRIY BELGILARI VA MOTIVLAR TIZIMI. *Modern Science and Research*, 4(4), 1149-1158.

16. Sharipova, M., & Bakhshulloyeva, S. (2025). THE PLACE OF THE WORK OF ABDULLA ARIPOV IN THE DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN LITERATURE. *Modern Science and Research*, 4(1), 388-395.
17. Sharipova, M. B. (2021). XALQ DOSTONLARIDA SOVCHILIK MAROSIMI BADIY IFODASI ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA). *Scientific progress*, 2(7), 1120-1124.
18. Baxshilloyevna, S. M. (2024). ARXAIK EPOSNING SUJET STRUKTURASIDA MOTIVLAR TAHLILI. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(4), 343-349.
19. Шарипова, М. Б., & Ньматуллоева, М. (2024, February). КОМПЛЕКСНАЯ КОНЦЕПЦИЯ РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТИ И ЕЕ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL E-CONFERENCE" MODERN TENDENCIES OF DIGITAL EDUCATION AND WAYS OF IMPLEMENTING THEM IN THE EDUCATIONAL PROCESS"*—Brno, Czech (Vol. 1, pp. 18-25).
20. Sharipova, M. (2020). ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРЯДОВ В ЭПОСЕ «АЛПОМИШ». *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).